TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.13/30.12.2019.T.07.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

SADIKOV SHUXRAT MUXAMADJANOVICH

KORPORATIV TARMOQ FOYDALANUVCHILARINING TAQSIMLANGAN MA'LUMOTLAR BAZASI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH USULLARI VA ALGORITMLARI

05.01.05-Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi

TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

UDK 004.056.57

Doktorlik (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата докторской (DSc) диссертации

Contents of the abstract of Doctoral (DSc) dissertation

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.13/30.12.2019.T.07.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

SADIKOV SHUXRAT MUXAMADJANOVICH

KORPORATIV TARMOQ FOYDALANUVCHILARINING TAQSIMLANGAN MA'LUMOTLAR BAZASI XAVFSIZLIGINI TA'MINLASH USULLARI VA ALGORITMLARI

05.01.05-Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi

**TEXNIKA FANLARI DOKTORI (DSc)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

Texnika fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.3.DSc/T655 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tuit.uz) va “Ziyonet” axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy maslahatchi:	**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich** iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Kerimov Kamil Fikratovich** texnika fanlari doktori, dotsent
	Jurayev Gayrat Umarovich fizika-matematika fanlari doktori, professor
	Primova Xolida Anarboyevna texnika fanlari doktori, dotsent
Yetakchi tashkilot:	**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti**

Dissertasiya himoyasi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti huzuridagi DSc.13/30.12.2019.T.07.02 raqamli Ilmiy kengashning 2023 yil «31» 10 da soat 11:00 dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100202, Toshkent shahri, Amir Temur ko‘chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-43; e-mail: tuit@tuit.uz).

Dissertasiya bilan Toshkent axborot texnologiyalari universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (284 raqam bilan ro‘yxatga olingan). (Manzil: 100202, Toshkent shahri, Amir Temur ko‘chasi, 108-uy. Tel.: (99871) 238-64-43).

Dissertasiya avtoreferati 2023 yil “20” 10 da tarqatildi.
(2023 yil «19» 10 dagi 4 raqamli reyestr bayonnomasi).

D.Y. Irgasheva
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi o‘rinbosari, t.f.d., professor

E.Sh. Nazirova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, t.f.d., professor

S.K .Ganiyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (doktorlik dissertasiyasi avtoreferati (DSc))

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon iqtisodiyotining bugungi holati va rivojlanish istiqbollari ustuvor darajada raqamli va sun'iy intellekt texnologiyalariga asoslanishi sharoitida korxonalar ma'lumotlarini qabul qilish, qayta ishlash, saqlash va axborotni uzatishning boshqarish tizimlarini samarali ta'minlashda kibertahdidlar va kiberhujumlardan samarali himoyalash muhim muammolardan biri bo'lib qolmoqda. "Kaspersky" kompaniyasining statistik ma'lumotlarga qaraganda, ma'lumotlar bazasiga bo'ladigan hujumlar soni 2020-yilda barcha hujumlarning 27 foizni tashkil etgan bo'lsa, oxirgi uch yilda bu ko'rsatgich 2,8 martaga ortib, 2023-yilda umumiy hisobda kiberhujumlarning 75,6 foizni tashkil qilgan[1]. Bugungi kunda jahonda axborot tizimlarini kibertahdid va kiberhujumlardan samarali himoyalash tizimini yaratishda axborotlar yaratilishining asosini tashkil qiluvchi korxona ma'lumotlar bazasini ishonchli himoyalashning dasturiy-texnologik ta'minotini tashkil qilish, taqsimlangan ma'lumotlar bazasini himoyalash tizimining samaradorligini oshirish, korporativ tarmoq foydalanuvchilarning taqsimlangan ma'lumotlar bazasida tarmoq hujumlarini ishonchli himoyalash, tahdidlarni aniqlashning samarali usullari va algoritmlarini qo'llash kabi chora-tadbirlarga alohida ahamiyat qaratilmoqda.

Jahonda korxonalarning korporativ tarmoq foydalanuvchilarining taqsimlangan ma'lumotlar bazasi arxitekturasi, taqsimlangan ma'lumotlar bazasida resurslarni zaxira nusxalash usullari va algoritmlarini takomillashtirish hamda taqsimlangan ma'lumotlar bazasida ruxsatlarni cheklash usul va algoritmlarini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy loyihalar ustuvor darajada amalga oshirilmoqda. Bu borada, taqsimlangan ma'lumotlar bazasida tashkilot aktivlari va resurslarini himoyalash, ruxsat etilmagan kirish va axborot xavfsizligi risklarini boshqarish hamda taqsimlangan ma'lumotlar bazasida axborotni himoyalashning kompleks modellarini ishlab chiqish, taqsimlangan ma'lumotlar bazasida zaifliklarni va korporativ tarmoq foydalanuvchilarining taqsimlangan ma'lumotlar bazasiga bo'ladigan tarmoq hujumlarni aniqlash usullari va algoritmlarini ishlab chiqish kabi mavzulardagi tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yangi O'zbekistonni barpo etish jarayonida mamlakatimiz strategik taraqqiyotining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida itisodiyotni raqamlashtirish belgilangan holda "Raqamli O'zbekiston – 2030" strategiyasi doirasida axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqish, axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirish hamda tashkiliy va dasturiy-texnologik asoslarini zamonaviy talablarga ko'ra mustahkamlash kabilar yuzasidan keng qamrovli dasturiy chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.[2] Mazkur vazifalar ijrosini samarali tashkil qilishda, jumladan, taqsimlangan ma'lumotlar bazasida

---

[1] https://securelist.ru/it-threat-evolution-q1-2023-pc-statistics/107526/
https://securelist.ru/it-threat-evolution-q1-2023/107467/
https://securelist.ru/it-threat-evolution-q1-2023-mobile-statistics/107514/

[2] O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022 - 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida» gi Farmoni

tashkilot aktivlari va resurslarni himoyalash, ruxsat etilmagan kirish va axborot xavfsizligi risklarini boshqarish hamda taqsimlangan ma'lumotlar bazasida axborotni himoyalashning kompleks modellarini ishlab chiqish, zaifliklarni va korporativ tarmoq foydalanuvchilarining taqsimlangan ma'lumotlar bazasiga bo'ladigan tarmoq hujumlarini samarali aniqlash kabi yo'nalishidagi tadqiqotlarni chuqurlashtirish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni, 2022-yil 22-avgustdagi PQ-357-son "2022-2023-yillarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasini yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, 2018 yil 19 fevraldagi PF-5349-son "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmonlari, 2018-yil 21-noyabrdagi PQ-4024-son "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi va 2019-yil 14-sentabrdagi PQ-4452-son "Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarining joriy etilishini nazorat qilish, ularni himoya qilish tizimini takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlari, hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga mazkur dissertatsiya tadqiqoti ma'lum darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining IV. "Axborotlashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Dissertatsiya mavzusi bo'yicha ilmiy-tadqiqotlar sharhi[3]**.** Jahonda korporativ tarmoq foydalanuvchilarining taqsimlangan ma'lumotlar bazasi xavfsizligini ta'minlash usullari va algoritmlarini ishlab chiqish va takomillashtirishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar, jumladan quyidagi yetakchi ilmiy markazlar va oliy o'quv yurtlarida amalga oshirilmoqda: Buyuk Pyotr nomidagi Sankt-Peterburg politexnika universiteti va N.E.Bauman nomidagi Moskva davlat texnika universiteti (Rossiya), Dongguk universiteti (Janubiy Koreya), Gonkong fan va texnologiya universiteti (Xitoy), Shvetsariya Federal texnologiya insituti (Shvetsariya), Massachusets texnologiya instituti (AQSH), Janubiy Koreya ilmiy va texnologiya ilmiy instituti (Janubiy Koreya), Tokio texnologiya instituti (Yaponiya), Myunxen texnika universiteti (Germaniya), Delft texnologiya universiteti (Niderlandiya), Xitoy fan va texnologiya universiteti (Xitoy)da va respublikamizda Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti, Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston milliy universiteti, Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektni rivojlantirish ilmiy-tadqiqot instituti, "Kiberxavfsizlik markazi" davlat unitar korxonasi, "UNICON.UZ" Fan-texnika va marketing tadqiqotlari markazi davlat unitar korxonasi (O'zbekiston Respublikasi).

[3] Dissertatsiya mavzusi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar sharhi https://www.researchgate.net, www.elsevier.com, http://www.machinelearning.ru, http://www.bmstu.ru, https://habr.com va boshqa manbalar asosida shakllantirilgan.

Jahonda taqsimlangan ma'lumotlar bazasida tashkilot aktivlari va resurslarni himoyalash, ruxsat etilmagan kirish va axborot xavfsizligi risklarini boshqarish hamda taqsimlangan ma'lumotlar bazasida axborotni himoyalashning kompleks modellarini ishlab chiqish bo'yicha, jumladan quyidagi ilmiy natijalar olingan: korporativ tarmoq foydalanuvchilarining taqsimlangan ma'lumotlar bazasi arxitekturasi, taqsimlangan ma'lumotlar bazasida resurslarni zaxira nusxalash usullari ishlab chiqilgan (Shvetsariya Federal texnologiya insituti (Shvetsariya), Massachusets texnologiya instituti (AQSH)), taqsimlangan ma'lumotlar bazasida ruxsatlarni cheklash algoritmlari ishlab chiqilgan (Dongguk universiteti (Janubiy Koreya), Delft texnologiya universiteti (Niderlandiya)), korporativ tarmoq foydalanuvchilarining taqsimlangan ma'lumotlar bazasiga bo'ladigan tarmoq hujumlarni aniqlash usullari va algoritmlari ishlab chiqilgan (Massachusets texnologiya instituti (AQSH), N.E.Bauman nomidagi Moskva davlat texnika universiteti (Rossiya)).

Dunyoda korporativ tarmoq foydalanuvchilarining taqsimlangan ma'lumotlar bazasi xavfsizligini ta'minlash usullari va algoritmlarini takomillashtirish va ishlab chiqish bo'yicha, jumladan quyidagi yo'nalishlarda ustuvor darajada tadqiqotlar olib borilmoqda: korporativ tarmoq foydalanuvchilarining taqsimlangan ma'lumotlar bazasi arxitekturasi, taqsimlangan ma'lumotlar bazasida resurslarni zaxira nusxalash usullari va algoritmlarini real vaqt rejimini e'tiborga olgan holda takomillashtirish; taqsimlangan ma'lumotlar bazasida ruxsatlarni cheklash usul va algoritmini foydalanuvchilarning vakolatlariga ko'ra ishlab chiqish; taqsimlangan ma'lumotlar bazasida tashkilot aktivlari va resurslarni himoyalash, ruxsat etilmagan kirish va axborot xavfsizligi risklarini boshqarish hamda taqsimlangan ma'lumotlar bazasida axborotni himoyalashning kompleks modellarini tashkilotning korporativ tarmog'idagi aktivlari va resurslarini e'tiborga olgan holda ishlab chiqish; tizimdagi zaifliklarni va korporativ tarmoq foydalanuvchilarining taqsimlangan ma'lumotlar bazasiga bo'ladigan tarmoq hujumlarni aniqlash usullari va algoritmlarini sathlarga ajratish asosida takomillashtirish.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Korporativ tarmoq foydalanuvchilarining taqsimlangan ma'lumotlar bazasini himoyalashda diskret matematika, graflar nazariyasi, tasodifiy jarayonlarni modellashtirish, mashinali o'qitishga asoslangan modellar va shunga o'xshash intellektual usullar asosida zamonaviy himoya mexanizmlarini uchun yangi usullar va algoritmlarni tadbiq etish bo'yicha M. Malik, T. Patel, I. Ghafir, J. Saleem, M. Hammoudeh, P. K. Paul, P. S. Aithal, S. B. Sadkhan, va boshqa chet ellik olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Taqsimlangan ma'lumotlar bazasida tashkilot aktivlari va resurslarni himoyalash, ruxsat etilmagan kirish va axborot xavfsizligi risklarini boshqarish hamda taqsimlangan ma'lumotlar bazasida axborotni himoyalashning kompleks modellarini ishlab chiqishda zamonaviy usullarni qo'llagan holda A. Suwalka, S. Kumar, J. C. Ogbonna, F. O. Nwokoma, X.Wang, L.Zhou, Yuan, V. Sharma, W. Lee. kabi olimlar tomonidan ilmiy izlanishlar olib borilgan va hozirda hamda ular boshchiligidagi ilmiy maktablari tomonidan davom ettirilmoqda. Bundan tashqari, InfoWatch, ideco, CyberBit, Juniper Networks, Fortinet, Garda

Texnologii va Cloud Networks tashkilotlari tomonidan taqsimlangan ma'lumotlar bazasi xavfsizligini ta'minlashga hamda korxonaning butun axborot tizimida axborotni himoyalashning dasturiy-apparat vositalarini ishlab chiqishga qaratilgan ilimiy-amaliy muhandislik-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

O'zbekistonda T.F.Bekmuratov, S.K.Ganiyev, M.M.Karimov, D.Y.Irgasheva N.A. Ignatev, G.Jurayev, R.X.Xamdamov, K.F.Kerimovlar boshchiligidagi ilmiy jamoalar tomonidan korporativ tarmoq foydalanuvchilarining taqsimlangan ma'lumotlar bazasidagi zaifliklarni aniqlash va korporativ tarmoq foydalanuvchilarining taqsimlangan ma'lumotlar bazasiga bo'ladigan tarmoq hujumlarni aniqlash usullari va algoritmlarini ishlab chiqish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borilgan.

Shu bilan birga taqsimlangan ma'lumotlar bazasida tashkilot aktivlari va resurslarni himoyalash, ruhsat etilmagan kirish va axborot xavfsizligi risklarini boshqarish hamda taqsimlangan ma'lumotlar bazasida axborotni himoyalashning kompleks modellarini ishlab chiqish va korporativ tarmoq foydalanuvchilarining taqsimlangan ma'lumotlar bazasi arxitekturasi, taqsimlangan ma'lumotlar bazasida resuslarni zaxira nusxalash usullari va algoritmlarini takomillashtirish hamda taqsimlangan ma'lumotlar bazasida ruxsatlarni cheklash usul va algoritmlari yetarlicha tadqiq etilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining 598661-EPP-12018-1-RO-EPPKA2-CBHE-JP "Developing Services for Individuals with Disabilities" hamda "Bo'lak-polinomial bazislarda signallar va tasvirlarga raqamli ishlov berishning intellektual dasturiy-texnik tizimlarini yaratishning nazariy metodologik asoslari" mavzusidagi loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi taqsimlangan ma'lumotlar bazasini himoyalash tizimining samaradorligini oshirishga imkon beruvchi korporativ tarmoq foydalanuvchilarning taqsimlangan ma'lumotlar bazasida zaifliklar va tarmoq hujumlarini aniqlashning natijador usullari va algoritmlarini ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

korporativ tarmoqda ma'lumotlar bazasiga bo'ladigan tarmoq hujum turlari va ularni tasniflanishini qiyosiy tahlil qilish;

korporativ tarmoq foydalanuvchilarining taqsimlangan ma'lumotlar bazasi arxitekturasini ishlab chiqish;

taqsimlangan ma'lumotlar bazasida resurslarni zaxira nusxalash usul va algoritmini ishlab chiqish;

taqsimlangan ma'lumotlar bazasida tashkilot aktivlari va resurslarni himoyalash hamda ruxsat etilmagan kirish va axborot xavfsizligi risklarini boshqarish modellarini ishlab chiqish;

taqsimlangan ma'lumotlar bazasida axborotni himoyalashning kompleks modelini ishlab chiqish;

taqsimlangan ma'lumotlar bazasida ruxsatlarni cheklash usul va algoritmi ishlab chiqish;

taqsimlangan ma'lumotlar bazasida zaifliklarni aniqlash usul va algoritmini ishlab chiqish;

korporativ tarmoq foydalanuvchilarining taqsimlangan ma'lumotlar bazasiga bo'ladigan tarmoq hujumlarni aniqlash usul va algoritmini ishlab chiqish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston Respublikasi korporativ tarmoq foydalanuvchilarining taqsimlangan ma'lumotlar bazasini himoyalash jarayoni olingan.

Tadqiqotning predmetini korporativ tarmoq foydalanuvchilarining taqsimlangan ma'lumotlar bazasida zaiflik va tarmoq hujumlarini aniqlash va bartaraf etish usullari va algoritmlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida ehtimollar nazariyasi, to'plamlar nazariyasi, diskret matematika, tasodifiy jarayonlarni modellashtirish, ma'lumotlar bazasini himoyalash, obyektga yo'naltirilgan dasturlash va boshqa usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

taqsimlangan ma'lumotlar bazasi tizimlarini integratsiyalash uchun ishlab chiqilgan arxitektura (ANSI/SPARC: American National Standards Institute, Standards Planning And Requirements Committee) markazlashtirilgan MBBTlari uchun umumiy komponentga ega bo'lgan korporativ tarmoq foydalanuvchilarining taqsimlangan ma'lumotlar bazasini arxitekturasi global koseptual sxemaga ko'ra takomillashtirilgan;

ma'lumotlar bazasidagi ma'lumotlarni to'liq, o'sib borish va differensial zaxiralash imkoniyatidan foydalangan holda real vaqt rejimida taqsimlangan ma'lumotlar bazasida resurslarni zaxira nusxalash usuli va algoritmi ishlab chiqilgan;

qarorlarini qo'llab-quvvatlashning dinamik ekspert tizimlariga asoslangan holda foydalanish darjasiga ko'ra himoyalangan aktivlarini boshqarish va axborotni himoyalash tizimining resurslarini boshqarish jarayonida taqsimlangan ma'lumotlar bazasidagi ma'lumotlarining o'zaro ta'siri modellari ishlab chiqilgan;

tashkilotda foydalanilayotgan taqsimlangan ma'lumotlar bazasidagi ma'lumotlardan foydalanishni boshqarish mexanizmlaridan kelib chiqib, foydalanuvchi vakolatlarini foydalanishni boshqarish aspektlari asosida taqsimlangan ma'lumotlar bazasida ruxsat etilmagan kirish va axborot xavfsizligi risklarini boshqarish modellari takomillashtirilgan;

taqsimlangan ma'lumotlar bazasi xavfsizligi va axborotni himoyalash bo'yicha ichki va tashqi huquqiy hujjatlarning talablaridan kelib chiqqan holda, umumiy resurslarning ichki va tashqi parametrlariga ko'ra ekspertlar guruhining axborotni himoya qilish tizimi va himoya qilish obektlari bo'yicha xulosasi asosida taqsimlangan ma'lumotlar bazasida axborotni himoyalashning kompleks modeli ishlab chiqilgan;

ma'lumotlar bazasiga foydalanuvchilar tomonidan yuborilgan so'rovlarga mos javoblarni kerakli jadvallardan qidirishda chiziqli, ikkilik va interpolyatsiya qidiruv

algoritmlarini qo'llash asosida axborot tizimi muhitiga ko'ra taqsimlangan ma'lumotlar bazasidagi zaifliklarni aniqlash usuli va algoritmi ishlab chiqilgan;

korporativ tarmoq foydalanuvchilarining taqsimlangan ma'lumotlar bazasida aktivlar, resurslar, xodimlar, uchinchi shaxs, hujum, tahdid, zaiflik va risk darajalariga vazn tushunchasini kiritish asosida korporativ tarmoq foydalanuvchilarining taqsimlangan ma'lumotlar bazasiga bo'ladigan tarmoq hujumlarini aniqlash usuli va algoritmi takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ruxsatlarni boshqarishning RBAC usulidagi mavjud kamchiliklarni ruxsatlarni boshqarishning ABAC usullidagi atributlari orqali takomillashtirish natijasida taqsimlangan ma'lumotlar bazasida ruxsatlarni cheklash usuli va algoritmi ishlab chiqilgan;

taqsimlangan ma'lumotlar bazasining mijoz-server arxitekturasida axborot xavfsizligi komponentalarining joylashuv sxemasidan foydalangan holda resuslarni zaxira nusxalash va xavfsizlikni ta'minlash dasturiy vositasi ishlab chiqilgan;

ruxsatlarni boshqarishning RBAC usulidagi mavjud kamchiliklarni ruxsatlarni boshqarishning ABAC usulidagi atributlari orqali takomillashtirish natijasida ishlab chiqilgan usul va algoritmdan foydalanib, foydalanuvchilarning vakolatlarini belgilash va rollarini taqsimlashning dasturiy vositasi ishlab chiqilgan;

ma'lumotlar bazasiga foydalanuvchilar tomonidan yuborilgan so'rovlarga mos javoblarni kerakli jadvallardan qidirishda chiziqli, ikkilik va interpolyatsiya qidiruv algoritmlarini qo'llagan holda ishlab chiqilgan usul va algoritmdan foydalanib, taqsimlangan ma'lumotlar bazasidagi zaifliklarni aniqlashning dasturiy vositasi ishlab chiqilgan;

korporativ tarmoq foydalanuvchilarining taqsimlangan ma'lumotlar bazasida aktivlar, resurslar, hodimlar, uchinchi shaxs, hujum, tahdid, zaiflik va risk darajalariga vazn tushunchasini kiritish orqali ishlab chiqilgan usul va algoritmdan foydalanib, taqsimlangan ma'lumotlar bazasiga nisbatan bo'ladigan tarmoq hujumlarini aniqlashning dasturiy vositasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalardan, jumladan Kiberxavfsizlik markazi davlat unitar korxonasi va O'zbekiston Respublikasi Raqamli texnologiyalar vazirligining statistik ma'lumotlaridan olingani hamda tegishli xulosa va takliflarning mutasaddi tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati korporativ tarmoq foydalanuvchilarining taqsimlangan ma'lumotlar bazasi arxitekturasi, taqsimlangan ma'lumotlar bazasida resurslarni zaxira nusxalash usullari va algoritmlarini real vaqt rejimida foydalanish darjasiga ko'ra takomillashtirilgani, taqsimlangan ma'lumotlar bazasida ruxsatlarni cheklash xususan, taqsimlangan ma'lumotlar bazasida zaifliklarni va korporativ tarmoq foydalanuvchilarining taqsimlangan ma'lumotlar bazasiga bo'ladigan tarmoq hujumlarni aniqlash usullari va algoritmlarini ishlab chiqish va takomillashtirish

hamda tashkilotning korporativ tarmog'ida axborotni himoyalash tizimlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati taklif etilgan usullar va algoritmlar asosida ishlab chiqilgan dasturiy ta'minot yordamida tashkilot faoliyat turiga ko'ra korporativ tarmoq foydalanuvchilarning taqsimlangan ma'lumotlar bazasidagi zaifliklarni aniqlash hamda ma'lumotlar bazasiga nisbatatan bo'ladigan tarmoq hujumlarini aniqlash va korxonaning butun axborot tizimida axborot xavfsizligini ta'minlash tizimini avtomatlashtirishga ko'maklashishi hamda olingan natijalarni qo'llash himoya obektida zaifliklarni muhit darajasida (server, mijoz, baza) aniqlash bilan bir qatorda, ma'lumotlar bazasini tarmoq hujumlaridan himoyalashda sarflanadigan tashkilot resurslarini qisqartirish va ulardan samarali foydalanish imkonini berishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Korporativ tarmoq foydalanuvchilarining taqsimlangan ma'lumotlar bazasi xavfsizligini ta'minlash usullari hamda dasturiy vositalari bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

taqsimlangan ma'lumotlar bazasi tizimlarini integratsiyalash uchun ishlab chiqilgan arxitektura (ANSI/SPARC: American National Standards Institute, Standards Planning And Requirements Committee) markazlashtirilgan MBBTlari uchun umumiy komponentga ega bo'lgan korporativ tarmoq foydalanuvchilari taqsimlangan ma'lumotlar bazasining arxitekturasi bo'yicha ishlab chiqilgan dasturiy vosita "Kiberxavfsizlik markazi" davlat unitar korxonasining amaliy faoliyatiga joriy qilingan (Raqamli texnologiyalar vazirligining 2023-yil 18-avgustdagi 33-8/5665-son ma'lumotnomasi). Ilmiy tadqiqot natijasida taqsimlangan ma'lumotlar bazasida zaifliklarni aniqlash usuli asosida ishlab chiqilgan dasturiy vosita korxonaning taqsimlangan ma'lumotlar bazasida 5 ta asosiy turdagi 77 ta zaifliklarni 97,5 foiz aniqlik qayd etgan holda aniqlash imkonini bergan;

ma'lumotlar bazasidagi ma'lumotlarni to'liq, o'sib borish va differensial zaxiralash imkoniyatidan foydalangan holda real vaqt rejimida taqsimlangan ma'lumotlar bazasida resurslarni zaxira nusxalash usuli va algoritmi asosida ishlab chiqilgan dasturiy vosita "Kiberxavfsizlik markazi" davlat unitar korxonasining amaliy faoliyatiga joriy qilingan (Raqamli texnologiyalar vazirligining 2023-yil 18-avgustdagi 33-8/5665-son ma'lumotnomasi). Ilmiy tadqiqot natijasida korxonaning taqsimlangan ma'lumotlar bazasiga bo'ladigan 9108 ta tarmoq hujumlaridan 8935 tasini 98,1 foiz aniqlik qayd etgan holda aniqlash imkonini bergan. Ushbu dasturiy vositaning samaradorligini aniqlash maqsadida amaldagi dasturiy vositalar bilan solishtirish natijasida boshqa dasturiy vositalarga nisbatan tarmoq hujumlarini aniqlash tezligi 1,8 ms tezligi yuqoriligi va tizimning yolg'on ishga tushish holatlari soni 1,6 marta kamligi aniqlangan;

qarorlarini qo'llab-quvvatlashning dinamik ekspert tizimlariga asoslangan holda foydalanish darjasiga ko'ra himoyalangan aktivlarini boshqarish va axborotni himoyalash tizimining resurslarini boshqarish jarayonida taqsimlangan ma'lumotlar bazasidagi ma'lumotlarining o'zaro ta'siri modellari asosida ishlab chiqilgan dasturiy vosita "UZINFOCOM Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-

quvvatlash bo'yicha yagona integrator" ma'suliyati cheklangan jamiyatining amaliy faoliyatiga joriy qilingan (Raqamli texnologiyalar vazirligining 2023-yil 18-avgustdagi 33-8/5665-son ma'lumotnomasi). Ilmiy tadqiqot natijasida korxonaning taqsimlangan ma'lumotlar bazasida 6 ta asosiy turdagi 76 ta zaifliklarni 98,2 foiz aniqlik qayd etgan holda aniqlash hamda korxonaning taqsimlangan ma'lumotlar bazasiga bo'ladigan 7683 ta tarmoq hujumlaridan 7560 tasini 98,3 foiz aniqlik qayd etgan holda aniqlash imkonini bergan;

tashkilotda foydalanilayotgan taqsimlangan ma'lumotlar bazasidagi ma'lumotlardan foydalanishni boshqarish mexanizmlaridan kelib chiqib, foydalanuvchi vakolatlarini foydalanishni boshqarish aspektlari asosida taqsimlangan ma'lumotlar bazasida ruxsat etilmagan kirish va axborot xavfsizligi risklarini boshqarish modellari asosida ishlab chiqilgan dasturiy vosita "UZINFOCOM Davlat axborot tizimlarini yaratish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha yagona integrator" ma'suliyati cheklangan jamiyatining amaliy faoliyatiga joriy qilingan (Raqamli texnologiyalar vazirligining 2023-yil 18-avgustdagi 33-8/5665-son ma'lumotnomasi). Ushbu dasturiy vositaning samaradorligini aniqlash maqsadida amaldagi dasturiy vositalar bilan solishtirish natijasida boshqa dasturiy vositalarga nisbatan tarmoq hujumlarini aniqlash tezligi 2,1 ms tezligi yuqoriligi va tizimning yolg'on ishga tushish holatlari soni 1,7 marta kamligi aniqlangan;

taqsimlangan ma'lumotlar bazasi xavfsizligi va axborotni himoyalash bo'yicha ichki va tashqi huquqiy hujjatlarning talablaridan kelib chiqqan holda, umumiy resurslarning ichki va tashqi parametrlariga ko'ra ekspertlar guruhining axborotni himoya qilish tizimi va himoya qilish obektlari bo'yicha xulosasi asosida taqsimlangan ma'lumotlar bazasida axborotni himoyalashning kompleks modeli asosida ishlab chiqilgan dasturiy vosita Elektromagnit moslashuv markazi - "EMMM" davlat unitar korxonasining amaliy faoliyatiga joriy qilingan (Raqamli texnologiyalar vazirligining 2023-yil 18-avgustdagi 33-8/5665-son ma'lumotnomasi). Ilmiy tadqiqot natijasida korxonaning taqsimlangan ma'lumotlar bazasida 6 ta asosiy turdagi 84 ta zaifliklarni 97,1 foiz aniqlik qayd etgan holda aniqlash hamda korxonaning taqsimlangan ma'lumotlar bazasiga bo'ladigan 6574 ta tarmoq hujumlaridan 6417 tasini 97,6 foiz aniqlik qayd etgan holda aniqlash imkonini bergan;

ma'lumotlar bazasiga foydalanuvchilar tomonidan yuborilgan so'rovlarga mos javoblarni kerakli jadvallardan qidirishda chiziqli, ikkilik va interpolyatsiya qidiruv algoritmlarini qo'llash asosida axborot tizimi muhitiga ko'ra taqsimlangan ma'lumotlar bazasidagi zaifliklarni aniqlash usuli va algoritmi asosida ishlab chiqilgan dasturiy vosita Elektromagnit moslashuv markazi - "EMMM" davlat unitar korxonasining amaliy faoliyatiga joriy qilingan (Raqamli texnologiyalar vazirligining 2023-yil 18-avgustdagi 33-8/5665-son ma'lumotnomasi). Ushbu dasturiy vositaning samaradorligini aniqlash maqsadida amaldagi dasturiy vositalar bilan solishtirish natijasida boshqa dasturiy vositalarga nisbatan tarmoq hujumlarini aniqlash tezligi 1,65 ms tezligi yuqoriligi va tizimning yolg'on ishga tushish holatlari soni 1,33 marta kamligi aniqlangan;

korporativ tarmoq foydalanuvchilarining taqsimlangan ma'lumotlar bazasida aktivlar, resurslar, xodimlar, uchinchi shaxs, hujum, tahdid, zaiflik va risk darajalariga vazn tushunchasini kiritish asosida korporativ tarmoq foydalanuvchilarining taqsimlangan ma'lumotlar bazasiga bo'ladigan tarmoq hujumlarini aniqlash usuli va algoritmi asosida ishlab chiqilgan dasturiy vosita Radioaloqa, radioeshittirish va televideniye markazi - «RRTM» davlat unitar korxonasining amaliy faoliyatiga joriy qilingan (Raqamli texnologiyalar vazirligining 2023-yil 18-avgustdagi 33-8/5665-son ma'lumotnomasi). Ilmiy tadqiqot natijasida taqsimlangan ma'lumotlar bazasida 4 ta asosiy turdagi 52 ta zaifliklarni 97,8 foiz aniqlik qayd etgan holda aniqlash hamda korxonaning taqsimlangan ma'lumotlar bazasiga bo'ladigan 5462 ta tarmoq hujumlaridan 5304 tasini 97,1 foiz aniqlik qayd etgan holda aniqlash imkonini bergan. Ushbu dasturiy vositaning samaradorligini aniqlash maqsadida amaldagi dasturiy vositalar bilan solishtirish natijasida boshqa dasturiy vositalarga nisbatan tarmoq hujumlarini aniqlash tezligi 1,9 ms tezligi yuqoriligi va tizimning yolg'on ishga tushish holatlari soni 1,8 marta kamligi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 5 ta xalqaro va 7 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiyaning mavzusi bo'yicha jami 28 ta ilmiy ish chop etilgan, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarning asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarida 13 ta maqola, shulardan, 6 tasi xorijiy va 7 tasi respublika jurnallarida nashr etilgan hamda 3 ta EHM uchun yaratilgan dasturiy vositalarni qaydlash guvohnomalari olingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiya hajmi 191 betni tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertasiya mavzusining dolzarbligi asoslangan, taqsimlangan ma'lumotlar bazasi xavfsizligini ta'minlash muammolarining qisqacha tahlili keltirilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari aniqlangan. Ilmiy yangiligi ta'riflangan va ish natijalarining amaliy ahamiyati ko'rsatilgan, himoyaga olib chiqiladigan asosiy ilmiy holatlar keltirilgan, tadqiqot natijalarini joriy etish, natijalarning nashr etilishi va dissertasiyaning tuzilishi to'g'risida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **"Korporativ tarmoqda taqsimlangan ma'lumotlar bazasini himoya qilish tizimlari tadqiqi"** deb nomalanuvchi birinchi bobida korporativ tarmoqda ma'lumotlar bazasiga bo'ladigan tarmoq hujum turlari va ularni tasniflanishini hamda taqsimlangan ma'lumotlar bazasiga ruxsatsiz harakatlardan asosida kirish va ma'lumotlar bazasi xavfsizligni buzish holatlari va ulardan himoyalanishda foydalaniladigan xavfsizlik modellarining qiyosiy tahlili bilan bir qatorda, butunlikni miqdoriy baholash hamda taqsimlangan ma'lumotlar bazasida axborotni qabul qilish, qayta ishlash va uzatish tizimlarida buzilish holatlarini kamaytirish to'g'risida fikr mulohazalar keltirilgan.

1-jadval.

Ma'lumotlar bazasiga nisbatan bo'ladigan tarmoq hujumlarining qiyosiy tahlili

Hujum nomi / Mezon	SQL inyeksiyasi hujumi	No standart pratokol hujumi	Ping Flooding hujumi	Ma'lumotlarni parchalash hujumi
Tasir darajasi (yuqori, o'rta, past)	yuqori	past	o'rta	past
Onlayn va offlayn (ulanish rejimi ichki va tashqi tarmoq turiga qarab)	onlayn offlayn	onlayn	onlayn	onlayn
MBBT turiga bog'liqligi	bog'liq	bog'liq	bog'liq	bog'liq
Amalga oshirish darajasi (oson, qiyin)	oson	qiyin	oson	qiyin
Konfidensiallikni buzish	+	+	-	+
Butunlikni buzish	+	+	-	+
Foydalanuvchanlikni buzish	+	-	+	+

Ma'lumotlar bazasi xavfsiligini ta'minlash jarayonida ma'lumotlar bazasi xavfsizligi modellari muhim ahamiyat kasb etadi. Axborot xavfsizligini ta'minlashning asosiy yo'nalishlaridan biri, ma'lumotlar bazasi foydalanuvchilarining rollarini belgilab berish hamda ularga taqdim etilgan rollar asosida beriladigan vakolatlardan to'g'ri foydalanishlarini nazorat qilish va zarur hollarda foydalanishni cheklashdir.

Bugungi kunda quyidagi xavfsizlik modellaridan foydalanib kelinmoqda: Xarrison-Ruzzo Ulmanning diskretsion modeli; Goger-Gezinger modeli; Bella-La Padula modeli; Biba modeli; Klark Uilson modeli; Millen modeli; Sazerlend modeli; Xavfsizlikning rolli modeli.

Taqsimlangan ma'lumotlar bazasida axborotni yig'ish, ro'yxatga olish, nazorat qilish, qayta ishlash, aloqa kanallari orqali ma'lumotlarni uzatishning istalgan bosqichlarida ma'lumotlarning yo'qolishi (ularning butunligini buzish) kuzatilishi mumkin. Saqlash vaqtida ma'lumotlar yo'qolishining oldini olish uchun ma'lumot tashish vositalarini mexanik shikastlanishdan va jismoniy ta'sirlardan (masalan, magnit maydonlar) himoya qilish uchun maxsus choralar ko'riladi.

Taqsimlangan ma'lumotlar bazasida ko'p darajali arxitektura, axborotni qayta ishlashning yangi texnologiyalari va ma'lumotlarni taqdim etish shakliga qo'yiladigan yangi talablar bilan bog'liq holda taqsimlangan ma'lumotlar bazasiga bo'ladigan tahdidlar va zaifliklarni aniqlab ularni bartaraf etish zarur.

Dissertatsiyaning **"Taqsimlangan ma'lumotlar bazasida axborot xavfsizligi komponentalari va resurslarni zaxira nusxalash usul va algoritmi"** deb nomalanuvchi ikkinchi bobi korporativ tarmoq foydalanuvchilarining taqsimlangan ma'lumotlar bazasi arxitekturasini ishlab chiqish bo'yicha fikr mulohazalar va taqsimlangan ma'lumotlar bazasining mijoz-server arxitekturasida axborot xavfsizligi komponentalarining joylashuv sxemasi hamda taqsimlangan ma'lumotlar bazasini himoyalash tizim samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar

keltirilgan va taqsimlangan ma'lumotlar bazasida resuslarni zaxira nusxalash usuli va algoritmi ishlab chiqishga bag'ishlangan.

Zamonaviy operatsion tizimlarda har xil turdagi himoyalangan obyektlar soni bir necha o'nlab, himoyalangan axborot oqimlarining har xil turlari soni bir necha yuzga yetishi mumkin. Shuning uchun ham amalga oshirish imkoniyati operatsion tizimda bajarilgan har qanday hujum ko'p jihatdan operatsion tizim arxitekturasi va konfiguratsiyasi bilan belgilanadi. Buni ishlab chiqishda taqsimlangan ma'lumotlar bazasi tizimlari uchun ANSI/SPARC (American National Standards Institute, Standards Planning And Requirements Committee) tomonidan maxsus ishlab chiqilgan arxitekturasidan foydalanilgan. Taklif etiladigan korporativ tarmoq foydalanuvchilarining taqsimlangan ma'lumotlar bazasi arxitekturasi 1-rasmda keltirilgan.



1-rasm. Korporativ tarmoq foydalanuvchilarining taqsimlangan ma'lumotlar bazasi arxitekturasi.

Taqsimlangan ma'lumotlar bazasi xavfsizligni ta'minlash uchun mijoz-server arxitekturasida axborot xavfsizligi komponentalarini joylashuvi muhim ahamiyat

kasb etadi. Bunga asosiy sabab foydalanuvchilar va ularga kerakli ma'lumotlarni korxonaning ma'lumotlar bazasidan olish jarayonida ularga vakolatlar beriladi. Ushbu vakolatlardan foydalanuvchilarning hammasi ham to'g'ri maqsadda foydalanmaydi. Shuning uchun ham foydalanuvchilarning tizimdan foydalanish holatlarini doimiy kuzatib turish va ruxsatsiz harakatalar aniqlangan vaqtda ularga qarshi reaksiya ko'rsatish mexanizmlarini ishlab chiqish zarur. Shundan kelib chiqib taqsimlangan ma'lumotlar bazasining mijoz-server arxitekturasida axborot xavfsizligi komponentalarining joylashuv sxemasi quyidagicha ko'rinishda bo'ladi (2-rasm).



2.-rasm. Taqsimlangan ma'lumotlar bazasining mijoz-server arxitekturasida axborot xavfsizligi komponentalarining joylashuv sxemasi.

Ma'lumotlarga asoslangan ilovalar va tizimlarning zamonaviy davrida ma'lumotlarni samarali boshqarish va himoya qilish ustuvor vazifaga aylandi. Taqsimlangan ma'lumotlar bazalari o'zlarining miqyosi va ishlash afzalliklari tufayli keng tarqalgan. Taqsimlangan ma'lumotlar bazasida resurslarni zaxira nusxalash algoritmi.

1-qadam. Zaxiralash jarayonini ishga tushirish.

2-qadam. Bo'lim darajasidagi zaxira.

3-qadam. Ma'lumotlarni taqsimlash va oqimlash.

4-qadam. Siqish va shifrlashni hisobga olgan holda samarali ma'lumotlarni uzatish mexanizmlarini joriy qilish.

5-qadam. Qayta tiklanadigan nazorat nuqtalari.

6-qadam. Xatolarni qayta ishlash va tiklash.

7-qadam. To'xtatib turish va davom ettirish funksiyasi.

8-qadam. Tekshirish punktlaridan davom etish.

9-qadam. To'ldirish va tekshirish.

10-qadam. Meta-ma'lumotlarning zaxira nusxasi va kataloglash.

11-qadam. Zaxira hisoboti va monitoring.

12-qadam. Saqlash va boshqarish.

13-qadam. Sinov va tasdiqlash.

Dissertasiyaning **"Korporativ tarmoqdagi taqsimlangan ma'lumotlar bazasida axborotni himoyalash modellari"** deb nomalanuvchi uchinchi bobi taqsimlangan ma'lumotlar bazasida tashkilot aktivlari va resurslarni himoyalash va taqsimlangan ma'lumotlar bazasida ruxsat etilmagan kirish va axborot xavfsizligi risklarini boshqarish modellari hamda taqsimlangan ma'lumotlar bazasida axborotni himoyalashning kompleks modellarini ishlab chiqishga bag'ishlangan.

Himoyalangan axborot aktivlari, axborot tizimlaridan foydalanishni boshqarish jarayoni umuman axborotni himoya qilish tizimida xususan axborot xavfsizligini boshqarishda muhim ahamiyatga ega.



3-rasm. Himoyalangan axborot aktivlari va axborot tizimlaridan foydalanishni boshqarish jarayonida taqsimlangan ma'lumotlar bazasidagi ma'lumotlarining o'zaro ta'siri modelining umumiy sxemasi.

Ushbu jarayon tashkilotdagi taqsimlangan ma'lumotlar bazasi xavfsizligi, umumiy ma'lumotlar bazasiga bog'langan va himoya tizimi asosida himoyalangan aktivlar, axborot tizimlaridan foydalanishning to'liqligi, aniqligi, to'g'riligi va qonuniyligini ta'minlaydi, shuningdek tashkilotning ushbu tarkibiy qismlaridan va

taqsimlangan ma'lumotlar bazasida foydalanuvchilarning ruxsatsiz foydalanishni cheklash va ushbu holatga yaqin jarayonlarni sezilarli darajada qiyinlashtirishni ta'minlaydi.

Bunda taqsimlangan ma'lumotlar bazasida audit o'tkazishda audit mezonlarini tanlashga alohida e'tibor qaratish zarur. Chunki tashkilot faoliyat turi o'zgargan hollarda taqsimlangan ma'lumotlar bazasida audit o'tkazishda tanlangan mezon ustuvorligini saqlab qolishini ta'minlash zarur.



4-rasm. Axborot xavfsizligi riski va tahdidlarini boshqarish jarayonida taqsimlangan ma'lumotlar bazasidagi ma'lumotlarining o'zaro ta'siri modelining umumiy sxemasi.

Taqsimlangan ma'lumotlar bazasi xavfsizligini ta'minlash va tashkilotning butun axborot tizimi doirasida axborotni himoyalash tizimi samaradorligini tahlil qilishni axborot xavfsizligini ta'minlash tizimini boshqarish jarayonining ajralmas elementi bo'lib, tashkilotda qo'llaniladigan tizim samaradorligini tahlil qilish metodologiyasini qo'llash natijalariga ko'ra shakllantiriladi hamda unga kiritilgan mos yozuvlar qiymatlariga nisbatan tashkilotning axborot xavfsizligining joriy darajasini ko'rsatadigan tahliliy hisob-kitoblarni taqdim etish uchun foydalaniladi. Bu hisob-kitoblar natijasida xavfsizlikni ta'minlashning komplek modeli ishlab chiqiladi.

Axborot xavfsizligi tizimida taqsimlangan ma'lumotlar bazasidagi ma'lumotlarning o'zaro ta'sirini jarayonli yondashuv asosida boshqarishning kompleks modelining umumiy sxemasi 5-rasmda ko'rsatilgan. Shunday qilib, ushbu modelga ko'ra, jarayon komponentlarini tavsiflashning bir qismi sifatida aniqlangan taqsimlangan ma'lumotlar bazasi xavfsizligini ta'minlash va boshqarish uchun zarur bo'lgan barcha ma'lumotlar usulni qo'llash doirasida ularning funksional rolini

ta'minlaydigan guruhlarga taqsimlanadi, shundan so'ng. ular majburiy tizimlashtirishdan o'tadi va 4 ta asosiy ma'lumot blokiga (aktivlar, resurslar, xodimlar, uchinchi shaxslar) taqsimlanadi. Keyin tashkilotning tarkibiy qismlarining eng maqbul ko'rinishi axborot tizimlar doirasida tizimlashtirilgan ma'lumotlarning mantiqiy guruhlanishi amalga oshiriladi.



5-rasm. Taqsimlangan ma'lumotlar bazasidagi ma'lumotlarning o'zaro ta'sirini jarayonli yondashuv asosida boshqarishning kompleks modelining umumiy sxemasi.

Dissertasiyaning **"Taqsimlangan ma'lumotlar bazasida ruxsatlarni cheklash, zaifliklarni va tarmoq hujumlarini aniqlash usullari va algoritmlari"** deb nomlangan to'rtinchi bobi korporativ tarmoq foydalanuvchilarining taqsimlangan ma'lumotlar bazasida ruxsatlarni cheklash hamda taqsimlangan ma'lumotlar bazasida zaifliklarni aniqlash usul va algoritmlari ishlab chiqilgan. Korxonaning ma'lumotlar bazasini tashqi va ichki tahdidlardan himoyalashni hisobga olgan holda, korporativ tarmoq foydalanuvchilarining taqsimlangan ma'lumotlar bazasiga bo'ladigan tarmoq hujumlarni aniqlash usul va algoritmi ishlab chiqilgan va boshqa turdagi hujumlardan himoyalanish tavsifiga bag'ishlangan.

Taqsimlangan ma'lumotlar bazasi muhitida ruxsatni cheklash uchun yangi algoritmni loyihalash turli omillarni, jumladan, ma'lumotlarning izchilligi, kengaytirilishi, xavfsizligi va ishlashini diqqat bilan ko'rib chiqishni talab qiladi. Quyida taqsimlangan ma'lumotlar bazasida ruxsatni cheklash algoritmi keltirilgan:

Taklif etilayotgan model algoritmi 14 qadamda tavsiflangan:

1-qadam. Rolga asoslangan kirishni boshqarish (RBAC) ishga tushirish.

2-qadam. Ma'lumotlarni ko'paytirish(replikatsiya) va sinxronlashtirish.

3-qadam. Dinamik rolni belgilash.

4-qadam. Kontekstga asoslangan kirishni boshqarish.

5-qadam. Ko'p faktorli autentifikatsiya (MFA).

6-qadam. Atributga asoslangan kirishni boshqarish (ABAC).

7-qadam. Vaqtga asoslangan rolni faollashtirish/o'chirish.

8-qadam. Rolga asoslangan shifrlash.

9-qadam. Atribut darajasidagi kirishni boshqarish.

10-qadam. Vakolatli boshqaruv.

11-qadam. Taqsimlangan izchillik va audit.

12-qadam. Rollarni meros qilib olish cheklovlari.

13-qadam. Tashqi obyekt integratsiyasi.

14-qadam. Xavfsizlik va maxfiylik masalalari.

SQL inyeksiya hujumi odatda hujumchilar (hakerlar) tashkilotning ma'lumotlar bazasi serverlaridan ma'lumotlarni o'zgartirishda, o'chirib tashlashda, o'qishda va nusxalashda kabi ishlarni amalga oshirish uchun foydalanadilar. Taqsimlangan ma'lumotlar bazasiga bo'ladigan ushbu hujum ma'lumotlar bazasidagi mavjud zaifliklar asosida amalga oshiriladi. Bularni oldini olish uchun ma'lumotlar bazasidagi zaifliklarni qidirib topish lozim.

Endi taklif etilayotgan usulni amalga oshirish uchun quyidagi ketma-ketliklar amalga oshiriladi. Ushbu ketma-ketlik tizimda mavjud bo'gan SQL inyeksiya zaifligini aniqlashga yordam beradi.

1-qadam. Mantiqiy noto'g'ri so'rovlar hujumi turi tanlanadi.

2-qadam. Hujum veb-sayt ilovasi xato sahifasini qaytarishi uchun sintaktik xatolar yoki mantiqiy xatolardan foydalanish uchun kerakli jadvallar biriktiriladi.

3-qadam. Inyeksiya login shaklidan olingan veb-sayt sahifasidan o'tib ketsa tizimda SQL inyeksiya zaifligi mavjud bo'ladi.

4-qadam. Keyingi qadamda esa foydalanilayotgan brauzerda SQL elementlarini yordamida so'rov kengyatmasini tekshirish amalga oshiriladi.

5-qadam. Ushbu elementlarni tekshirgandan so'ng, avtomatlashtirish ilovasi Python (Php...) kutubxonasidagi kutubxona so'rovlari yordamida uni qayta chaqiradi. Bunga sabab MBBT MySQL (SQL) so'rovini yuborish funksiyasi post turidir, chunki tizim ishlash prinsipi ishlab chiqilgan so'rov orqali yuborishga asoslangan.

6-qadam. Shundan so'ng funksiyada xatolikmavjud bo'lsa MBsiga kirish sahifasi orqali veb-saytga kirishga imkon beradi.

7-qadam. Ilova tomonidan yaratilgan so'rov orqali esa ma'lumotlar bazasida foydalanuvchi nomi va parolni topishga imkn beradi.

8-qadam. Inyeksiya uchta parametrdan, ya'ni ustun_nomi, birinchi_indeks va bir qator belgilardan iborat bo'lgan pastki qator () funksiyasi yordamida amalga oshiriladi.

9-qadam. Inyektsiya so‘rovi login formasidagi bo‘shliqning asosiy so‘roviga mos bo‘lib, asosiy so‘rov ishlamasligini ta’minlaydi. Bu vaqtda tizim haqiqiy inyeksiya so‘rovi bilan almashtira olmaydi.

10-qadam. Amalga oshirilgan so‘rovlar yuqoridagi yuqorida keltirilgan jadvaldagi algoritmlar bo‘yicha avtomatlashtiriladi. Izlash kerak bo‘lgan birinchi narsa – ma’lumotlar bazasi nomi. Keyin ushbu nomdan jadvallar ro‘yxatini qidirish boshlanadi.

11-qadam. Jadval nomini olingandan so‘ng, foydalanuvchi foydalanuvchi nomlari va parollar ro‘yxatini o‘z ichiga olgan jadvallardan foydalanish vakolatiga ega bo‘ladi.

Korporativ tarmoq foydalanuvchilarining taqsimlangan ma’lumotlar bazasini hududlar kesimida bo‘linishi aniqlangandan so‘ng ushbu bazalarga bo‘ladigan tarmoq hujumlarini aniqlash uchun quyidagi darajalarning har biriga mos holdatda 3-bobda keltirilgan modellar asosida juft taqqoslanishi matritsalarini hisoblash talab etiladi. Ushbu darajalar:

- taqsimlangan ma’lumotlar bazasidagi aktivlar darajasi (A)
- taqsimlangan ma’lumotlar bazasidagi resurslar darajasi (R)
- taqsimlangan ma’lumotlar bazasidagi hodimlar darajasi (H)
- taqsimlangan ma’lumotlar bazasidagi uchinchi shaxs darajasi (U)
- taqsimlangan ma’lumotlar bazasidagi hujum darajasi (Hujum)
- taqsimlangan ma’lumotlar bazasidagi tahdidlar darajasi (T)
- taqsimlangan ma’lumotlar bazasidagi zaifliklar darajasi (Z)
- taqsimlangan ma’lumotlar bazasidagi risk darajasi (Risk)

Bundan so‘ng alohida korporativ tarmoq foydalanuvchilarining taqsimlangan ma’lumotlar bazasiga bo‘ladigan tarmoq hujumlarini aniqlash darajasi hamda resurslar va foydalanuvchilar guruhi darajasida hamda bo‘limlar orasida qo‘shimcha aloqalar qo‘shiladi.

$$A = \begin{pmatrix} 1 & a_1/a_2 & \dots & a_1/a_n \\ a_2/a_1 & 1 & \dots & a_2/a_n \\ \vdots & \vdots & \dots & \vdots \\ a_n/a_1 & a_n/a_2 & \dots & 1 \end{pmatrix}, \qquad (1)$$

bu yerda A – korporativ tarmoq foydalanuvchilarining taqsimlangan ma’lumotlar bazasiga bo‘ladigan tarmoq hujumlarini aniqlashda aktivlar darajasining juft taqqoslanish matritsasi.

$$R = \begin{pmatrix} 1 & r_1/r_2 & \dots & r_1/r_k \\ r_2/r_1 & 1 & \dots & r_2/r_k \\ \vdots & \vdots & \dots & \vdots \\ r_k/r_1 & r_k/r_2 & \dots & 1 \end{pmatrix}, \qquad (2)$$

